

ERTAKLARNI MODELLASHTIRISH

Andijon Davlat chet tillari
instituti
Roman-german va
slavyan tillari
fakulteti,
Kompyuter lingvistikasi
yoʻnalishi
1-bosqich
talabasi
Erkinova Durdonaxon
Oʻtkirjon qizi
Ilmiy maslahatchi:
Kabulova Umida

Annotatsiya: Mazkur maqolada ertaklarni modellashtirish¹ jarayoni, uning nazariy asoslari, adabiy xususiyatlari va ilmiy-pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. Unda avvalo ertak tushunchasining xalq ogʻzaki ijodi hamda adabiy jarayondagi oʻrni izohlanib, ertaklarning nega modellashtirilishi va modellashtirish nima uchun zamonaviy ilmiy yondashuv sifatida muhim hisoblanishi asoslab beriladi. Maqolada Vladimir Proppning funksional modeli, oʻzbek xalq ertaklariga xos milliy tuzilma, sehrli elementlar tizimi, qahramonlarning rollari va ertak kompozitsiyasining bosqichlari batafsil tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: *motiv, modellashtirish, syujet, Vladimir Propp, sunʼiy intellektda qoʻllanish, sehrli yordamchi, sehrli dunyo.*

Аннотация: В статье подробно рассматривается процесс моделирования сказок, его теоретические основы, литературные особенности и научно-

¹ Ertak – xalq ogʻzaki yoki adabiy ijod namunasi boʻlib, qahramon, voqea va syujet orqali axloqiy, maʼnaviy va tarbiyaviy gʻoyalarni etkazadi.

педагогическое значение. В первую очередь, раскрывается роль понятия «сказка» в народном устном творчестве и литературном процессе, обосновывается необходимость моделирования сказок и важность моделирования как современного научного подхода. В статье подробно анализируются функциональная модель Владимира Проппа, национальная структура, характерная для узбекских народных сказок, система магических элементов, роли героев и этапы создания сказки.

Ключевые слова: *мотив, моделирование, сюжет, Владимир Пропп, применение в искусственном интеллекте, волшебный помощник, волшебный мир.*

Abstract: This article extensively covers the process of modeling fairy tales, its theoretical foundations, literary features, and scientific and pedagogical significance. First, it explains the role of the concept of a fairy tale in folk oral creativity and the literary process, and justifies why fairy tales are modeled and why modeling is considered important as a modern scientific approach. The article analyzes in detail Vladimir Propp's functional model, the national structure characteristic of Uzbek folk tales, the system of magical elements, the roles of heroes, and the stages of fairy tale composition.

Keywords: *motif, modeling, plot, Vladimir Propp, application in artificial intelligence, magical assistant, magical world.*

Insoniyat tarixida ertaklar ajdodlarimizning dunyoqarashi, orzu-intilishlari, hayotiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan eng qadimiy og'zaki janrlardan biridir. Ertaklar nafaqat badiiy asar yoki ko'ngilochar matn, balki xalqning tafakkuri, ijtimoiy hayoti, ruhiyati va axloqiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi kuchli ma'naviy-psixologik sistema sifatida ham o'rganiladi. Bugungi kunda adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya, informatika, sun'iy intellekt va lingvistika sohalari ertaklarni modellashtirish keng qo'llanilmoqda. Ertaklarni modellashtirish — bu ertak tuzilishi, qahramonlar xarakteri, voqealar ketma-ketligi, badiiy vaqt va

makonni ilmiy asoslarda tahlil qilish, ularning umumiy strukturaviy modelini yaratish jarayonidir. Bunday modellash pedagogik jarayonda tushunishni osonlashtiradi, yozuvchi va o'quvchi uchun namunaviy qolip beradi, shuningdek, sun'iy intellekt uchun ham kerakli bo'lgan algoritmik birikmalarni hosil qiladi.

Vladimir Propp ² tomonidan o'rganilgan sehrli ertaklarning mazmuni odatda yagona strukturaviy izchillik asosida shakllanadi. U tahlil qilgan ertaklarda voqealar tasodifiy joylashmaydi, balki aniq tartib va ketma-ketlikka ega bo'lgan funksiyalar orqali rivojlanadi. Bu ertaklarning mazmuni avvalo qahramon hayotida ma'lum bir muammoga duch kelishi bilan boshlanadi. Qahramon odatda tinch hayot kechirayotgan paytda yovuz kuchning paydo bo'lishi, oila a'zosining yo'qolishi, qishloq xavfga tushishi yoki sehrli mavjudot tomonidan zarar yetkazilishi tufayli katta sinovga duch keladi. Aynan shu muammo voqea rivojining boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi va qahramonni harakatga chorlaydi. Keyinchalik qahramon muammoni hal etish maqsadida o'z uyidan chiqib, uzoq safarga o'tlanadi. Propp tahlil qilgan ertaklarda safarga chiqish motivi juda muhim bo'lib, bu qadam qahramonning jasorati, qat'iyati va mustaqil qaror qabul qila olishini namoyon etadi. Qahramon yo'lda ko'plab sinovlar va to'siqlarga duch keladi, biroq aynan mana shu jarayonda u sehrli yordamchilar bilan uchrashadi. Bu yordamchilar ko'pincha qari kampir, sehrli ot, gapiradigan qush, yovuz kuchlarni yengadigan qilich yoki sehrli predmet ko'rinishida bo'ladi. Propp ta'kidlaganidek, yordamchilarning berilishi bejiz emas — qahramonning mehribonligi, saxiyligi, axloqiy tozaligi natijasida u yordam olishga loyiq bo'ladi.

Ertaklar mazmuni davomida qahramon bir necha murakkab sinovlardan o'tadi. Ushbu sinovlar ertakning eng asosiy qismini tashkil qiladi va qahramonning haqiqiy qadrini ochib beradi. Sehrgarlar, devlar, jinlar bilan uchrashuvlar, jumboqlarni yechish, sehrli joylardan o'tish, uchta topshiriqni bajarish kabi sinovlar qahramonning iroda kuchini ko'rsatadi. Sinovlar yakunida qahramon yovuz kuch

² Vladimir Propp – rus olimi, folklorshunos, ertaklarning 31 funksiyali strukturaviy modelini ishlab chiqqan tadqiqotchi.

ustidan g'alaba qozonadi. Bu g'alaba modomiki ertakning markaziy mazmuniy tugunini yechadi, chunki qahramon yovuzlikni yengib, o'z maqsadiga erishadi: malika topiladi, xazina qo'lga kiritiladi yoki yo'qolgan yaqinlari qutqariladi. Ertak mazmunining yana bir qiziqarli elementi — qahramonning uyga qaytishi va tan olinmasligi motividir³. Propp tahliliga ko'ra, ko'plab sehrli ertaklarda qahramon safardan qaytgach, uni hech kim tan olmaydi yoki yovuz odam uning o'rniga da'vo qiladi. Bu motiv voqeani yanada keskinlashtirib, qahramonning asl qadr-qimmatini yana bir bor sinovdan o'tkazadi. Yakunda esa haqiqat albatta ochiladi. Qahramonning asl qahramon ekani isbotlanadi, xalq uni tan oladi, mukofotlanadi, podshoh bo'lishi yoki baxtli hayot kechirish huquqiga ega bo'ladi. Propp ko'rsatgan bu yakuniy bosqich ertaklarning an'anaviy "yaxshilik yomonlikni yengadi" g'oyasini mustahkamlaydi.

Ertaklarni modellashtirishning amaliy ko'rinishlari (misollar)

Misol: "Zumrad va Qimmat" ertagi modeli

1. Qahramonlar: Zumrad (yaxshi), Qimmat (yomon), Ona, O'gay ona.
2. Konflikt: o'gay onaning zulmi.
3. Sehrli element: sehrli daraxt, mo'jizaviy ovoz.
4. Sinov: Zumradning sabr-toqati.
5. G'alaba: Qimmat o'z yomonligining jazosi.
6. Xulosa: yaxshilik doim ustun.

Misol: "Sariq devni minib" modeli

1. Bola — bosh qahramon
2. Sehrli dev — yordamchi
3. Qiyinchiliklar — maktab, do'stlik, uy vazifalari
4. Yakun — bola aql bilan muammolarni hal qiladi

Ertaklarni modellashtirishda o'zbek folkloriga xos bo'lgan motivlar ajralib turadi:

Risolachi kampir – maslahat beruvchi ayol obrazi

Devlar ierarxiyasi – katta dev, kichik dev, yetti boshli dev

³ motividir³-bu badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatiga turtki beruvchi, syujet rivojiga sabab bo'ladigan mazmuniy birlik.

Hayvonlar do'sti – botirga yordam beradigan ot, sher, tulki

Qirq qaroqchi – sinov va to'siq motivi sifatida

Temirchilar, kosiblar – xalq kasbining ertakdagi akslanishi

Modellashtirish jarayoni shuni ko'rsatadiki, xalq ertaklarining tuzilishi turli xalqlarda turlicha bo'lgani bilan, ularning ichki mantiqi bir-biriga juda o'xshaydi. Qahramonning yo'lga chiqishi, sinovlarga duch kelishi, sehrli yordam olishi va yakunda g'alaba qozonishi kabi funksiyalar deyarli barcha xalq og'zaki ijod namunalari uchun universal xususiyatdir. Bu holat ertaklarning insoniyat tafakkurining umumiy modelini aks ettirishini, ularning yuzlab yillar davomida shakllangan tajribalar va qadriyatlarni o'zida jamlaganligini ko'rsatadi. Ertaklar modellashtirishda "matnning yashirin qatlamlari" tahlili .Ertaklarda faqat syujet ⁴emas, balki yashirin psixologik va ijtimoiy ma'nolar ham mavjud. Zamonaviy modellashtirishda ertaklarning ongsiz qo'rquvlarni aks ettirishi, ijtimoiy rollarni shakllantirishi, bolalar ongidagi konfliktlarni yumshatishi kabi yashirin qatlamlar psixoanalitik model orqali tahlil qilinadi. Masalan, "Bo'ri va echkilar" ertagi bolalarda xavfsizlik instinktini shakllantirishi orqali izohlanadi.

Ertaklarni modellashtirish – bu nafaqat folklor matnlarini tahlil qilish, balki xalq tafakkuri, qadriyatlari va estetik qarashlarini ilmiy asosda o'rganish imkonini beruvchi chuqur jarayondir. Ertaklar o'zida ko'p qatlamli mazmun, ramziy obrazlar, qadimiy e'tiqodlar va axloqiy tushunchalarni mujassamlagan murakkab tizim bo'lib, ularni modellashtirish orqali ularning yashirin strukturalari, funksiyalari va umumiy kompozitsion qonuniyatlari aniqlab olinadi. Ayniqsa, Vladimir Proppning 31 funksiyadan iborat modeli, Jozef Kembellning "Qahramonning sayohati" konsepsiyasi, shuningdek, zamonaviy lingvistik va psixologik yondashuvlar ertaklarning nazariy tahlilini yanada chuqurlashtiradi. Zamonaviy davrda ertaklarni modellashtirish sun'iy intellekt sohasida ham katta imkoniyat ochmoqda. Propp funksional modeli asosida kompyuterlar yangi ertaklar yaratishi, syujetlarni qayta qurishi, qahramonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni mustaqil shakllantira olishi mumkin.

⁴ Syujet – ertakdagi voqealar ketma-ketligi, qahramonlarning harakatlari va hodisalar zanjiri.

Bu esa folklor matnlarini nafaqat tadqiq etish, balki ularni qayta yaratish, saqlash va rivojlantirish jarayonida ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Ertaklarni modellashtirish — bu xalq og‘zaki ijodining yashirin mexanizmlarini ochib beruvchi, ularning strukturalari va mazmuniy funksiyalarini aniq ko‘rinishda tasvirlaydigan, fanlararo integratsiyani ta’minlovchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. Bu jarayon yordamida ertaklarning semantik qatlamlari chuqurroq ochiladi, ularning badiiy xususiyatlari, pedagogik va psixologik ta’siri kengroq tahlil qilinadi. Eng muhimi, ertaklarning modellashtirilishi kelajak avlod uchun ularni saqlash, o‘rganish va zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta tiklash imkonini beradi. Shuning uchun ertaklarni modellashtirish nafaqat ilmiy tadqiqot sifatida, balki milliy merosni kelajak avlodga to‘liq va haqqoniy yetkazishning eng samarali usullaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. U. Ismoilov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. 2010.
2. H. Boltaboev. Folklorshunoslikka kirish. 2002.
3. To‘xtasinov, S. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. 1999.
4. Mahmudov, N. Adabiyotshunoslik asoslari. 2014.
5. N. Rahimjonov. XX asr folklorshunosligi rivoji. Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2018.